

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA PARADIGMAL YONDASHUVNING AHAMIYATI

O.P.Hayitova – katta o'qituvchi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

**Tayanch so'zlar:** boshlang'ich sinf, kompetentlik, ta'lim paradigmalari, pedagogik yondashuv, ta'lim islohotlari, zamonaviy metodikalar.


**Ключевые слова:** начальная школа, компетентность, образовательные парадигмы, педагогический подход, образовательные реформы, современные методики.

**Key words:** primary school, competence, educational paradigms, pedagogical approach, educational reforms, modern methodologies.

**Kirish.** Mamlakatimizda maktabgacha va maktab talimi tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy talim texnologiyalarini joriy etgan holda talim sifatini yanada oshirish masalalari dolzarb hisoblanmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda umumiy o'rta talimni jadal rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda, mamlakatimizda bolalarni to'liq maktab ta'limiga qamrab olish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda, davlat statistika qo'mitasi malumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida maktab o'quvchilari soni 6476,09 ming kishini tashkil etgan holda, umumiy aholining 17,8% umumiy o'rta talimga qamrab olingan. Shundan, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari kesimida quyidagicha tahlil etiladi. Xorazm viloyati kesimida ushbu ko'rsatkich, 2023 yil holatiga ko'ra, 365, 684 ming kishini tashkil etgan holda o'tgan o'quv yiliga nisbatan 1,37 % ga, 2015-2016 o'quv yiliga nisbatan 24,26 % ga, 2010-2011 o'quv yiliga nisbatan esa 27,13 % ga oshganligini ko'rish mumkin. Bunda, umumtalim tashkilotlari pedagog xodimlari soni 2022-2023 o'quv yili holatiga ko'ra Respublika bo'yicha 527,8 ming kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich mazkur hudud kesimida 32,5 ming kishini tashkil etadi.


Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 2021-2022 o'quv yili boshiga 734 tani tashkil yetib, 2018- yilga nisbatan 26 taga ko'paygan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib quyidagicha rivojlanib kelmoqda(1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni

Mazkur ta'lim tashkilotlari umumiy o'rta ta'limni, ixtisoslashtirgan o'rta ta'limni va boshlang'ich

maktablarni o'z ichiga oladi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatkichlariga ko'ra boshlang'ich maktablarning o'quvchilari soni 0,3 foizga ortganligini hamda ushbu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 50,1 foizga oshganligini aniqladi (2-rasm).



2-rasm. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2023-yilda jami 362578 ta o'quvchi tahsil olmoqda. Shunda, qariyb 144,2 ming o'quvchilar boshlang'ich ta'limga qamrab olingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi umum ta'lim muassasi darslariga o'quvchilarning qatnashish darajasi yeng yaxshi ko'rsatkichga ega.

Ushbu statistik ma'lumotlarga tayangan holda, shuni aytishimiz lozimki, hozirda ushbu hududda boshlang'ich ta'lim maktablariga bo'lgan talab ortmoqda. Shu boisdan, ushbu muassalarni zamonaviy ta'lim paradigmalariga tayangan, yuqori kompetentsiyaga yega kadrlar bilan ta'minlash dolzarbligi ortadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, ushbu oliy talim muassasasi tajribasini o'rganish hamda paradigmalar yondashuv asosida boshlang'ich sinf yo'nalishi talabalari kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish maqsad qilindi.

Tajriba-sinov davomida, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining zamonaviy ta'lim

standartlariga mos holda ta'lim olishi bevosita bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy metodik kompetentligiga uzviy bog'ligini aniqlanadi. O'qituvchining metodik kompetentligining kognitiv tarkibiy qismi o'qituvchining metodik bilimlar tizimiga egaligini va bu bilimlarning o'zi uchun ham, kasbiy faoliyati uchun ham, kasbiy o'sish uchun ham muhimligi va ahamiyatini tushunishni o'z ichiga oladi [4:349-351]. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining metodik kompetentligini zamonaviy ta'lim paradigmalarini qo'llash orqali paradigmalar yondashuv asosida takomillashtirish hozirgi kunda butun dunyoda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'qituvchining metodik kompetentligini shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan izchil o'rganilgan. Jumladan, Tumasheva O.V. o'z ilmiy ishlarida metodik kompetentlikni o'qituvchining metodik bilim, ko'nikma va faoliyat uslublariga egalik qilish qobiliyati, bu bilimlarning nafaqat kasbiy faoliyat, balki jamiyatdagi o'zaro munosabatlar uchun ham qiymatini anglash, uslubiy muammolarni hal qilish tajribasi va o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlik sifatida talqin qiladi. Metodik kompetentlikni u shaxsning integral xususiyati deb ta'riflaydi [5]. Gushchin T. va Kovaleva I. esa metodik kompetentlikni o'qituvchining shaxsiy va professional jihatlarining ko'p darajali integratsiyalashgan xususiyati sifatida ko'rib chiqadi [6,7,8]. Ledneva S.V., Moshurova L.M. va Korchagina T.S. o'z ilmiy ishlarida zamonaviy ta'lim paradigmalarining ta'lim jarayonidagi o'rnini va ularning ahamiyatini tahlil qilgan. Shkerina L.V. o'z ishlarida metodik kompetentlikni o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati jarayonida sifatli ta'limni ta'minlashga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni egallash sifatida talqin qiladi [6]. Filatova O.P. metodik kompetentlikni pedagogning audiovizual texnologiyalarni o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish qobiliyati bilan bog'laydi [7]. Maltseva E.V. esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz pedagogik ta'lim tizimining o'zni haqida fikr yuritadi [8]. Yuqorida keltirilgan olimlar ta'kidlaganidek, metodik kompetentlik nafaqat o'qituvchining bilim va ko'nikmalariga, balki ularning zamonaviy ta'lim talablariga moslashish qobiliyatiga ham bog'liq. Bu fikrlar zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.


**Metodologiya.** Mazkur ilmiy tadqiqot davomida analiz, sintez kabi ilmiy tadqiqot hamda zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash bo'yicha metodologiyalardan foydalanildi.

**Taxlil va natijalar.** "Paradigma" atamasi (yunoncha paradigma - misol, namuna) haqiqatning eng muhim xususiyatlarini ifodalovchi tushunchalar tizimida mujassamlangan qat'iy ilmiy nazariyani

anglatadi. Uning ikkinchi ma'nosi ma'lum bir vaqt oralig'ida mutaxassislar jamoasiga muammolarni qo'yish va ularni hal qilish modelini taqdim etadigan umume'tirof etilgan ilmiy yutuqlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Aynan shu ma'noda u pedagogik nazariyada ta'limning kontseptual modellarini belgilash uchun ishlatiladi.

**Zamonaviy ta'lim paradigmalari va ularning tahlili.** Ta'lim, jamiyatning tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, uning rivojlanishi davomida turli paradigmalar vujudga keldi. Shuning uchun bugungi kunda zamonaviy ta'lim shakllanishi va rivojlanishida quyidagicha ta'lim paradigmalarini keng qo'llaniladi (3-rasm):

Zamonaviy Ta'lim Paradigmalarini: Ven Diagrammasi



3-rasm. Zamonaviy ta'lim paradigmalarini

3-rasmda zamonaviy ta'lim paradigmalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining maqsadi va usullari jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Zamonaviy ta'lim jarayonida turli paradigmalar mavjud bo'lib, ularning har biri muayyan yondashuv va maqsadlarga ega. Shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan paradigmalar, jumladan, fenomenologik va ezoterik yondashuvlar, o'quvchilarning ichki qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, insonning o'zini anglash hamda ruhiy barkamollikka erishishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bilim va texnologiyalarni rivojlantirishga asoslangan paradigmalar, jumladan, texnokratik va ratsionalistik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar hamda amaliy bilimlarni shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu paradigmalar mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashuvchan kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Gumanitar va qadriyatga asoslangan paradigmalar esa shaxsning ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish hamda jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu paradigmalar

ta'lim jarayonining insonparvarlik tamoyillariga asoslanganligini namoyon etib, ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Turli paradigma-lar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu ta'lim jarayonining samaradorli-gini oshirish imkonini yaratadi. Masalan, kashfiyot paradigmasi texnologiya va shaxsiy rivojlanish o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlasa, an'anaviy-konservativ paradigma esa barcha yondashuvlar

uchun umumiy asos vazifasini bajaradi. Har bir paradigma ta'lim tizimida o'ziga xos metodologik yondashuvlarni taklif etsada, ularning kompleks integratsiyasi eng yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Shunday qilib, ta'lim jarayonini takomil-lashtirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun turli paradigmalarni uzviy bog'langan holda qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мақтабгача ва мактаб таълими вазирилиги ҳамда унинг тизимидаги ташкилотлар фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 2023 йил 26-майдаги ПФ-79 сонли фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат статистика агентлиги 2023 йил якунлари бўйича маълумотлари.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 май “2022-2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-134-сон Фармоннинг 1-илоvasи

4. Ибрагимова Ш., Исмоилова З., Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик компетент-лигини шакллантириш педагогик муаммо сифатида. // Academic research in educational sciences volume 1 | issue 4. | 2020, -P. 347.

5. Тумашева О.В. О методической компетентности учителя. // Вестник КГПУ им. В.П.Астафьева. Методика преподавания. 2009 (1). 2.

6. Шкерина Л.В. Мониторинг качества профессионально-педагогической подготовки будущего учи-теля в педагогическом вузе: учебно-метод. Пособие, Краснояр. гос. ун-т им. В.П.Астафьева. - Красноярск: 2004. -С. 244.

7. Филатова О.П. Процесс формирования методической компетенции педагогов при освоении аудио-визуальных технологий обучения. Научно-теоретический журнал Выпуск. 1(14).2013.

8. Мальцева Е.В. Развитие профессиональной компетентности читателей начальных классов в системе непрерывного педагогического образования. / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, 2006. —С.6.

**REZYUME.** Ushbu maqolada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda zamonaviy ta'lim paradigmalarining ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari va rivojlanish ko'rsatkichlari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda paradigmalar yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari, uning pedagogik jarayonda o'qituvchilarni tayyorlashga ta'siri kompetentlikning shakllanishida kognitiv, gumanitar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmalari kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается значение современных образовательных парадигм в повышении профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов. Также, рассматриваются актуальные проблемы и показатели развития начального образования в Республике Каракалпакстан, теоретические и практические аспекты парадигмального подхода в повышении профес-сиональной компетентности будущих учителей начальных классов, его влияние на подготовку учителей в педагогическом процессе, разрабатываются практические рекомендации по организации образова-тельного процесса на основе современных педагогических подходов, таких как когнитивная, гуманитар-ная и личностно-ориентированная образовательные парадигмы в формировании компетентности.

**SUMMARY.** This article examines the importance of modern educational paradigms in improving the professional competence of future primary school teachers. Also, the current issues and development indicators of primary education in the Republic of Karakalpakstan, theoretical and practical aspects of the paradigm approach in improving the professional competence of future primary school teachers, its impact on the training of teachers in the pedagogical process, practical recommendations for organizing the educational process on the basis of modern pedagogical approaches such as cognitive, humanitarian and person-oriented educational paradigms in the formation of competence are developed.